

## SOHIBQIRON AMIR TEMUR

*Tuxtaboyeva Feruza**Andijon viloyati Izboskan tumani**2-son kasb hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Ushbu ma'qolada Sohibqiron Amir Temurning yoshligi qanday o'tganligi to'g'risida, qiziqishlari, odamiyligi, sahiyligi to'g'risida va ma'rifatparvar ekanligi va fransiya qiroli bilan o'rnatgan aloqalari to'g'risida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Sohibqiron – (arabcha) O'zbek xalq dostoni. Amir – (arabcha) amal qiluvchi, hokim, boshliq. Chavandoz - otda o'ynash san'atini egallagan odam. Mavlono – (arabcha) bizning janob.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatdatibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqa xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat aqliga ko'rsatgan g'amxo'rliqi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: „Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi“. Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Klavixo Samarqand bozorlarida bug'doy va guruchning mo'lligi va arzonligi haqida gapirib,

shahar hunarmandchiligi mahsulotlarini — atlas, kimxob, har xil ip va jun to‘qima mollar, mo‘ynali va ipakli po‘stinliklar, attorlik mollari, ziravor va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligini ham ta’kidlaydilar. Bu davrda Amir Temur va uning joy Sulton Mahmudxon asir olingan noiblari Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan asosiy xalqaro savdo yo‘li — „Buyuk ipak yo‘li“ni nazorat qilib, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta’minlashda, rabotlar, qal’alar, ko‘priklar qurish yo‘lida muhim chora-tadbirlar ko‘rdilar va Sharq bilan G‘arb o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g‘oyat katta e’tibor berdilar. Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o‘rtasidagi tarqoklik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqgar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik kirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatdi.

**Xulosa va takliflar:** Xulosa qilib aytganda Sohibqiron Amir Temurning yoshligi, o‘spirin paytidagi turli hil mashg‘ulotlar bilan sug‘ullanganligi, chavandozligi, ziyrak va idrokli ekanligi, atrofdagi tengdosh do‘stlaridan ajralib turgan, ulg‘aygach esa yuksak davlat arbobi, sarkarda, marifatparvar inson bo‘lgan ekanligi bilishimiz mumkin, ayniqsa o‘z davrida savdo, hunarmandchilik, bozorlarni ko‘payishiga katta e’tibor bergan.

Amir Temur davrida buyuk ipak yo‘li yanada gullab yashnadi, chet davlatlar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar o‘rnatdi.

#### Adabiyotlar:

1. Dilshodbek O‘roqov, Abdullo Sharapov “O‘zbekiston tarixidan universal qo‘llanma” – Toshkent akademnashr 2020.
2. Alann Edgar “Buyuk Temur”-Yangi asr avlodi 2016.
3. Narzulla Ahmedov “Amur Temur: rivoyat va haqiqat”-Toshkent akademnashr 1996.
4. Hamidulla Dadaboyev “Amur Temur davrdoshlari”-Sharq Ziyozakovat 2018.
5. Bahtiyor Egamberdiyevich Haydarov “Safar oldidan safar”-Vector pres 2008.
6. Komiljon Sultonov “Shibquron Amir Temurning ma’naviy jasorati”-Toshkent 2021.